

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA: O'ZARO SAVDO HAJMI

Zokirova Sitora Soxib qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932515>

ARTICLE INFO

Received: 04th May 2023

Accepted: 13th May 2023

Online: 13th May 2023

KEY WORDS

Eksport geografiyasi, kombinatsiyalashgan tovarlar, qiyosiy ustunlik, eksport tarkibi, savdo balansi, eksport hajmi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalari tahlili keltirilgan. Maqolada xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tahlili olib boriladigan eng ilg'or saytlardagi ma'lumotlardan foydalanilgan hamda ular statistik tahlil qilingan. O'zbekistonning eksport geografiyasini kengaytirishda muhim qadamlar va amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalar yoritilgan. Shuningdek, maqolada ba'zi bir matematik formulalar va hisob-kitoblar keltirilgan.

O'zbekiston ham mana yaqin yillardan buyon xomashyo eksporti hajmini kamaytirish, eksport tarkibida tayyor mahsulotning ulushini oshirish singari strategik indikativ rejalarni amalga oshirishga intilmoqda. Jumladan, mamlakatimizning 2021-yilning aprelidan GSP+ programmasiga qo'shilishi ham yurtimiz eksportyorlari uchun 6200 turdagi tovarni Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga bojxona bojlari-siz eksport qilish imkonini beradi. Mamlakatimiz uchun bu 5 yilga berilgan imkoniyatdir. Natijada, 2022-yilning birinchi yarmida O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga eksporti 86 foizga o'sdi, o'sishning 90 foizi to'qimachilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'zbekistonning Yel mamlakatlari, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi bilan o'zaro savdo dinamikasi tahlil etilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Yaqin yillardan buyon O'zbekistondan Germaniyaga qilingan eksport hajmidan ko'ra Germaniyadan O'zbekistonga tovarlar va xizmatlar eksporti ancha ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2021-yil bo'yicha O'zbekistondan Germaniyaga eksport xajmi (mln AQSH dollarida)¹

Maxsulotlar	Jami savdo qiymati	Foizi
Molibden	\$12M	22,2%
Sof paxta iplari	\$6,39M	11,8%
Platina	\$5,48M	10,1%

¹ <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/uzb/partner/deu?comparativeAdvantageAxisScaleSelector=log&measureBilateralTradeSelector=vizValueOpti on1>



Qalampir	\$3,84M	7,1%
Xom qo'rg'oshin	\$3,31M	6,1%
Quritilgan sabzavotlar	\$2,33M	4,31%
Uzum	\$1,75M	3,24%

Yuqoridagi jadvalda 2021-yilda O'zbekistondan Germaniya Federativ Respublikasiga qilingan asosiy eksport mahsulotlari tasvirlangan. Quyida esa Germaniyadan O'zbekistonga keltirilgan asosiy tovarlar hamda import hajmi keltirilgan. Bu ikki jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hamda Germaniya o'rtasidagi savdo saldosini manfiy bo'lib, bu soha kelajakda islohotlar va ijobiy tarafga o'zgarishi zarur bo'ladi.

O'zbekiston hamda Germaniya o'rtasidagi savdo tarkibi tahlil qilinganida mamlakatimizdan, asosan, xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksporti katta ulushga ega ekanligini ko'rish mumkin. Germaniya tarafidan esa, asosan, tayyor mahsulot hamda kapital va intellekt sig'imi yuqori bo'lgan tovarlar va importga nisbatan katta miqdorda yurtimizga eksport qilinganini kuzatish mumkin.

2-jadval


2021-yil bo'yicha Germaniyadan O'zbekistonga import xajmi (million AQSH dollarida).

Maxsulotlar	Jami savdo qiymati	Foizi
Dorilar	\$71,4M	10.2%
To'qimachilik tolasi mashinalari	\$47,1M	6,73%
Avtomobil	\$26,2M	3,75%
Vaktsinalar, qon , antisera, toksinlar	\$25,2M	3,61%
Kir yuvish va qadoqlash mashinalari	\$18,6M	2,66%
Traktor	\$18,5M	2,65%
Terapevtik asboblari	\$17,3M	2,47%

Quyidagi 1-diagrammada O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi tovar ayirboshlash mahsuloti bo'yicha, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi savdoni inobatga olgan holda taqqoslanadi. Iqtisodiy tahlillar rasadxonasi (The Observatory of Economic Complexity (OEC)ning 2021-yil uchun bergan tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Germaniyaga 54,1 million dollar eksport qildi. 2021-yil davomida O'zbekiston Germaniya bilan metall (18 million dollar), to'qimachilik (13,8 million dollar) va sabzavot mahsulotlari (11,1 million dollar) eksporti bo'yicha katta sof savdoga erishdi. 2021-yilda O'zbekiston Germaniyaga hech qanday xizmat eksport qilinmadi.

2021-yilda Germaniya O'zbekistonga 700 million dollar eksport qildi. Germaniya O'zbekistonga eksport qilgan asosiy mahsulotlar qadoqlangan dori vositalari (71,4 million dollar), to'qimachilik tolasi mashinalari (47,1 million dollar) va avtomobillar (26,2 million dollar) bo'ldi. 2021 yilda Germaniya O'zbekistonga hech qanday xizmat eksport qilmadi.


Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo bo'yicha COMTRADE ma'lumotlar bazasiga ko'ra, Germaniyaning O'zbekistondan importi 2022-yilda 89,46 million dollarni tashkil etdi.



1-rasm. Qiyosiy ustunlik O'zbekiston – Germaniya 2021-yil ²

Quyidagi grafik orqali esa O'zbekiston hamda Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi tovarlar oldi-berdisi ko'rsatilgan. Ushbu vizualizatsiya ko'kdan sariq ranggacha bo'lgan HS4 darajasidagi mahsulot maydonini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, nuqta/mahsulot qanchalik ko'k bo'lsa, O'zbekiston Germaniyadan shunchalik ko'p nisbiy ustunlikka ega. Xuddi shunday, nuqta/mahsulot qanchalik sariq bo'lsa, Germaniya O'zbekistonga nisbatan shunchalik ko'p qiyosiy ustunlikka ega. Yana shuni ta'kidlash joizki, grafikning atrofida joylashgan nuqtalar xomashyo ko'rinishidagi eksportni nazarda tutadi. Grafik o'rtasida joylashgan nuqtalar esa tayyor mahsulot eksportini anglatadi. Nuqtalar o'rtasidagi chiziqlar esa o'sha mahsulotning tayyor bo'lishi uchun zarur bo'lgan tovarlar kombinatsiyasini anglatadi. Ya'ni chetroqda joylashgan nuqtalarda kombinatsiya kamroq, o'rtada joylashgan tovarlar birmuncha murakkab hamda ko'proq kombinatsiyalashgan tovarlar hisoblanadi.

² <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/uzb/partner/deu?comparativeAdvantageAxisScaleSelector=log&measureBilateralTradeSelector=vizValueOption1>



2-rasm. 2021-йилда Ўзбекистон ва Германия ўртасидаги савдонинг товарлар хилма-хиллиги

Mazkur grafikdan ham 2021-yilda O'zbekiston ko'proq xomashyo ko'rinishidagi tovarlarni eksport qilganligini tushunish mumkin. Germaniya esa ko'proq kapital va intellekt sig'imi yuqori bo'lgan tovarlarni mamlakatimizga eksport qilgan.

Shu nuqtai nazardan, BMTning Savdo va rivojlanish tashkiloti (United Nations Conference on Trade and Development, UNCTAD)ning izlanuvchilari hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston quyidagi (3-rasm) asosida ma'lum tovarlarni Jahon bozoriga yetkazib berishda nisbiy afzallikka ega ekanligi yoritilgan [2, OEC, 2021].

Aniqlangan qiyosiy ustunlik-RCA (Revealed comparative advantage) David Rikardoning nisbiy afzallik nazariyasiga asoslanib hisob-kitob qilingan bo'lib, bunga ko'ra O'zbekiston asosan, oziq-ovqat va tirik jonivorlar, xomashyo materiallari, ishlab chiqarish materiallari, ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini Jahon bozoriga yetkazib berishda nisbiy afzallikka ega. Jumladan, ipak va ipak kalavasini Jahon bozoriga yetkazib berishda O'zbekiston deyarli mutlaq afzallikka ega ekanligini ko'rish mumkin. [3, UNCTAD, 2021].

Mazkur ko'rsatkichda muayyan mahsulotga nisbatan nisbiy afzallikni aniqlash formulasi quyidagicha ishlaydi:


$$RCA = \frac{\frac{X_{ij}}{X_i}}{\frac{X_{wj}}{X_w}}$$

Bu yerda:

- RCA: Mahsulot yoki sohaga oid Qiyosiy ustunlik ko'rsatkichi
- X_{ij} : Ixtisoslashgan mahsulot yoki sohaga oid i-mamlakatning j-manzilga eksporti
- X_i : i-mamlakatning barcha mahsulot yoki sohaga oid barcha eksporti
- X_{wj} : J-manzilga eksport qilingan mahsulot yoki sohaga oid dunyo eksporti
- X_w : Barcha mahsulot yoki sohaga oid barcha dunyo eksport miqdori


RCA qiymati mamlakat yoki mintaqaning belgilangan mahsulot yoki sohadagi ixtisoslashuvini va raqobatbardoshlik darajasini bildiradi. I mamlakati ma'lum mahsuloti bo'yicha aniqlangan qiyosiy ustunlikka ega deb aytiladi, agar uning muayyan mahsuloti eksportining barcha tovarlar (mahsulotlar) umumiy eksportiga nisbati butun dunyo bo'yicha ham shu nisbat hamda ularning bo'linmasi katta yoki teng 1 (100) bo'lsa. Ko'rsatkich 100 (10000)ga yaqinlashgan sari i mamlakat ma'lum mahsuloti eksporti bo'yicha dunyoda mutlaq afzallikka ega bo'ladi Endi, agar RCA indeksi (%) > 100 bo'lsa, demak, ishlab chiqarish sohasida mamlakat jahon iqtisodiyotiga nisbatan qiyosiy ustunlikka ega. Agar RCA indeksi (%) < 100 bo'lsa, demak, mamlakat ishlab chiqarish sohasida jahon iqtisodiyotiga nisbatan qiyosiy kamchilikka ega deb aytishimiz mumkin. Bundan tashqari, agar RCA indeksi (%) = 100 bo'lsa, unda shuni aytishimiz mumkinki, mamlakat ishlab chiqarish sektorining raqobatbardoshligi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan bir xil darajada.

Mazkur hisob-kitoblarni asosida O'zbekiston ayrim tovarlar bo'yicha deyarli mutlaq ustunlikka ega ekanligi ko'rinadi. Masalan, O'zbekistondan jahon bozoriga yetkazib berilgan ipak tolasining puldagi qiymati 36,990 ming AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, ipak tolasini bo'yicha O'zbekistonning RCA ko'rsatkichi 175,80 ga teng. Bu shuni anglatadiki, O'zbekiston jahon bozoriga ipak tolasini yetkazib berish borasida boshqa mamlakatlarga nisbatan deyarli mutlaq ustunlikka egadir.



3-rasm. 2021-yilda O'zbekistonning qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlar sinfi.³

Xalqaro savdo uyi (International trade center (ICT) olimlarining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistondan Germaniyaga TOP-15 xil mahsulot eksport qilingan. Quyidagi rasmda aks etgan ma'lumotlar maxsus hisob-kitoblar asosida tuzilgan bo'lib, ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo munosabatlari hamda eksport-import imkoniyatlarini baholaydi. Bunga ko'ra, O'zbekistondan Germaniyaga eksport qilish salohiyati yuqori bo'lgan mahsulotlar qatoriga mis katodlari (eksport potentsiali \$6mln., xaqiqatta eksport 0), uzumlar (eksport potentsiali \$2.5mln., xaqiqatta eksport 1% - \$28k), paxtadan tayyorlangan futbolka va jiletlar, trikotaj/to'qish mahsulotlari (eksport potentsiali \$2.7mln., xaqiqatta eksport 15% - \$412k) kiradi. Odamlarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalari, Germaniyada eng kuchli talab salohiyatiga duch keladigan mahsulotdir (eksport potentsiali \$2.7mln., xaqiqatta eksport 0).



4-rasm. 2021-yil uchun TOP-15 ta tovar bo'yicha O'zbekistonning Germaniyaga eksport potentsiali.⁴

³ <https://unctadstat.unctad.org/en/RcaRadar.html>

⁴ <https://exportpotential.intracen.org/en/products/analyze?fromMarker=i&exporter=860&toMarker=j&market=276&whatMarker=k>



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida xilma-xil tovarlar almashinuvi mavjud, ammo ushbu savdo aylanmasida mamlakatimiz tarafidan xomashyo o'rniga tayyor mahsulot va kapital sig'imi yuqori tovarlarning ulushini oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizning umume'tirof etilgan xalqaro programmalarga qo'shilishi, shuningdek, bir qancha xalqaro moliya korxonalari bilan o'zaro aloqalarning rivojlanishi bu masalada yaqin o'n yillikda sezilarli o'zgarishlarga olib keladi..

References:

1. https://dunyo.info/ru/site/inner?slug=posle_predostavleniya_uzbekistanu_statusa_benefitsiara_gsp%2B_eksport_v_strani_evrosoyuza_v_pervom_polugodii_viros_na_86_protsentov-3f0
2. <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/uzb/partner/deu?comparativeAdvantageAxisScaleSelector=log&measureBilateralTradeSelector=vizValueOption1>
3. <https://unctadstat.unctad.org/en/RcaRadar.html>
4. <https://exportpotential.intracen.org/en/products/analyze?fromMarker=i&exporter=860&toMarker=j&market=276&whatMarker=k>